

# Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирув



ISSN 2181-7138

№ 1 2022 жыл

## Илимий-методикалық журнал

### Редактор:

**А. Тилегенов**

### Редколлегия аъзалары:

Мақсат АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Кеңесбай АЛЛАМБЕРГЕНОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ  
Өсербай ӨЛЕЎОВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Кеңесбай ДАУЛЕТЯРОВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Гүлмира ҚАРЛЫБАЕВА  
Асқарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Зухра СЕИТОВА  
Айдын СУЛТАНОВА  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Ризамат ШОДНОВ  
Ойбахор ШАМИЕВА  
Бекзод ХОДЖАЕВ  
Дустназар ХИММАТЛИЕВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА

### Шөлкөмлестириўшилер:

**Қарақалпақстан Республикасы  
Халық билимлендириў  
Министрлиги, ӨЗПНИИ  
Қарақалпақстан филиалы**

**Өзбекстан Республикасы  
Министрлер Кабинети  
жанындағы Жоқарғы  
Аттестация Комиссиясы  
Президиумының 25.10.2007  
жыл (№138) қарары менен  
дизимге алынды**

**Қарақалпақстан Баспа сөз хәм  
хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге  
алынды №01-044-санлы гуўалық  
берилген.**

**Мәнзил: Нөкис қаласы,  
Ерназар Алақөз көшесі №54  
Тел.: 224-23-00  
e-mail: [uzniipnkkf@umail.uz](mailto:uzniipnkkf@umail.uz),  
[mugallim-pednauk@umail.uz](mailto:mugallim-pednauk@umail.uz)  
[www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz](http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz)**

Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жарияланған мақалалардан алынған үзіндилер «Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендирув» журналынан алынды, деп көрсетилуви шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледі. Мақалада келтирилген мағлұматларға автор жууапкер.

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲАМ АДЕБИЯТ

|                                                                                                                |    |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Отажанов Н., Казакова Р.</b> «Бобурнома»ни рус лаҳжасига ўгиришдаги дастлабки тажриба ва таржималар .....   | 4  |
| <b>Усмонова М.Б.</b> Адабиёт дарсларида ўқувчиларда миллий характер хусусиятларини ривожлантириш йўллари ..... | 10 |
| <b>Mamashajeva M.</b> Die bedeutung und das gebrauch der it beim sprachlernen .....                            | 13 |

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

|                                                                                                                                                         |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Асқарова Ў.М., Раҳимова Д.</b> Ота-она қаримогисиз қолган болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашда маънавий қадриятларнинг ўрни .....                    | 17 |
| <b>Абдуллаев Г.Р., Жаббарова Д.З.</b> Oila muhitining bola rivojlanishidagi oʻrni va shart-sharoitlarning bola psixikasiga taʼsiri .....                | 20 |
| <b>Пазылова М.Е.</b> Компетенциявий ёндашувга асосланган таълим жараёнида талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашнинг дидактик шарт-шароитлари .....      | 25 |
| <b>Муртозаева М.М.</b> Ёўлажак педагоглари таълим-тарбия жараёнига тайёрлаш ва экологик компетентликни ривожлантиришнинг механизмлари .....             | 31 |
| <b>Sobirova M.Y.</b> Antroposentrik yondashuv asosida oʻquvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish .....                                    | 34 |
| <b>Қурбонова Б.Қ.</b> Ҳамкорлик педагогикаси асосида талабалар билан таълим-тарбия жараёнида ўзаро биргаликдаги фаолият механизмини ривожлантириш ..... | 38 |
| <b>Супиева Б.А.</b> Малака ошириш тизимида давлат (Ўзбек) тили модулини ўқитишда замонавий ўқув-услубий мажмуалардан фойдаланиш зарурияти .....         | 42 |
| <b>Пргашова М.А.</b> Замонавий раҳбар бошқарув фаолиятининг самарадорлиги .....                                                                         | 45 |
| <b>Гуламова Н.Г.</b> Талабаларда ижтимоий фаолликни ривожлантириш жараёнларини ташкил этиш ва бошқариш .....                                            | 48 |
| <b>Tojiboyeva S.X.</b> Biologiya fani darsligida abu ali ibn sino ilmiy merosidan foydalanishning mazmun mohiyatini va tahlillari .....                 | 52 |
| <b>Mamatxanova N.T.</b> Boʻlajak oʻqituvchini ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash zaruriyati .....                                                 | 55 |
| <b>Ортикова З.</b> Замонавий оилага хос тенденциялар .....                                                                                              | 58 |
| <b>Самижоновна М.</b> Талабалар илмий-тадқиқот ишини ташкил этиш ва уни такомиллаштириш йўллари .....                                                   | 62 |
| <b>Қосимова Г.</b> Ёўлажак чет тили ўқитувчиларининг методик тайёргарлигининг ривожлантиришда лойиҳа усулидан фойдаланиш .....                          | 66 |
| <b>Юванов Ш.Ў.</b> Мактаб таълимида ўқувчиларга юксак ахлокийлик фазилатларини ўргатишда Япония тажрибаси .....                                         | 68 |
| <b>Jalolova F.M.</b> Oʻquvchilar tayanch kompetentligini shakllantirishda PISA xalqaro baholash dasturining ahamiyati .....                             | 72 |
| <b>Rustamova L.I.</b> Oʻquvchilarda kreativlik qobiliyatni rivojlantirish omillari .....                                                                | 75 |
| <b>Qirboyeva N.T.</b> Oʻquvchilarda tolerantlik va millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati .....                                 | 77 |
| <b>Пардеева Д.Р.</b> Талабаларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг усуллари .....                                                                          | 81 |
| <b>Malikova D.M.</b> Oʻquvchilarni mutolaa vositasida muloqot koʻnikmalarga oʻrgatish .....                                                             | 83 |
| <b>Shomurodov J.</b> Oʻquv materiallarini strukturalash asosida oʻquvchilarning kognitiv qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirish .....                | 86 |
| <b>Berdieva H.B.</b> Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini shakllantirish mezonlari .....                       | 89 |

|                                                                                                                               |    |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Шахмурова Г.А., Тулаганов Д. Д.</b> Вектор и перспективы развития биологического образования в Республике Узбекистан ..... | 93 |
| <b>Musurmonov R., Sharaxmatova A.K.</b> Kredit-modul tizimida o'qitish texnologiyalaridan foydalanish – davr talabi .....     | 99 |

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУҶҲЫЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРНИҲ, ФИЛОСОФИЯ

|                                                                                                                             |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Urazimbetov A. B.</b> Milliy g'urur: anana va innovatsiyalar .....                                                       | 103 |
| <b>Abduraxmonova D.K.</b> Muharrirning Bobur portretiga oid qaydlari .....                                                  | 106 |
| <b>Мўминов З.О.</b> Ички миграция жараёнларида мигрантлар моддий эҳтиёжи ва қариндош-уруғчиликнинг ўзаро алоқадорлиги ..... | 109 |

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

|                                                                                                                                                  |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Джумагулов З.У., Бердимбетова А.Д.</b> Бўлажак технологик таълим ўқитувчиларининг методик тайёргарлигини такомиллаштириш технологиялари ..... | 114 |
| <b>Мухитдинова Ж.Р.</b> Технология дарсларида ўқувчиларни техник фикрлаш қобилиятларини келажак касблари бўйича шакллантириш усуллари .....      | 118 |
| <b>Зарипов О.К.</b> Электрон таълим муҳитида интерактив таълим ресурсларини яратишнинг ташкилий тузулмаси .....                                  | 123 |

## БАСЛАҲУШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТАРБИЯ

|                                                                                                                                                 |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Ташибекова М.Х.</b> Бошланғич синф ўқувчиларида ўқув-билув компетенциясини шакллантиришда STEM технологиясининг педагогик хусусиятлари ..... | 127 |
| <b>Эргашева Г.Н.</b> Мактабгача таълим ташкилотларида инглиз тилини ўргатишнинг методик таъминоти самарадорлиги .....                           | 131 |
| <b>Хурвалиева Т.Г.</b> Мактабгача ёшдаги болаларни атроф олам билан таништириш моделининг инновацион тузилмаси ва мазмуни .....                 | 136 |
| <b>Ergasheva X.Y., Maxsuthodjayev M.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining yoshga doir psixologik xususiyatlari .....    | 140 |
| <b>Ачилова С.Ж.</b> Дизартрия нутқ нуқсонига эга бўлган болаларда нутқнинг фонетико-фонематик жиҳатдан ривожланишининг ўзига хослиги .....      | 144 |

## ФИЗИКАЛИҚ ТАРБИЯ ҲАМ СПОРТ

|                                                                                                                              |     |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Дехкамбаева З.А.</b> Ёшларни жисмоний тарбия ва спорт воситасида тарбиялашнинг хусусиятлари .....                         | 151 |
| <b>Маматқулов М.Х.</b> Имконияти чекланган ўсмирларда жисмоний сифатларнинг шаклланишида спорт тўғрақларининг аҳамияти ..... | 154 |
| <b>Achilov T. S.</b> Kurash falsafasi va uning pedagogik ahamiyati .....                                                     | 157 |

РЕЗИОМЕ

Ushbu ish kelajakka intilish sharoitida umrbod biologik ta'limning potentsialini o'rganib, O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi sifatida belgilab qo'yilgan, shuningdek, rivojlanishning potentsial vektorini belgilaydi. Islohotlarning samaradorligi va amalga oshirilgan chora-tadbirlar kompleksi va ularning biologik ta'limni rivojlantirish yo'nalishlariga ta'siri haqida qisqacha ma'lumot berilgan.

РЕЗИОМЕ

Данная работа рассматривает потенциал непрерывного биологического образования в контексте устремления в будущее, обозначенной как основная цель текущих реформ в Республике Узбекистан, а также обозначает потенциальный вектор развития, который государство уже обозначило текущими реформами. Дается краткий обзор эффективности реформ и свод уже принятых мер и их влияние на направление развития биологического образования.

SUMMARY

This work examines the potential of lifelong biological education in the context of striving for the future, designated as the main goal of the current reforms in the Republic of Uzbekistan, and also denotes the potential vector of development, which the state has already identified with the current reforms. A brief overview of the effectiveness of the reforms and a set of measures already taken and their impact on the direction of development of biological education are given.

## KREDIT-MODUL TIZIMIDA O'QITISH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH – DAVR TALABI

**Musurmonov R.**

*Chirchiq davlat pedagogika instituti “Pedagogika va menejment”*

*kafedrası dotsenti, p.f.n.*

**Sharaxmatova A.K.**

*Chirchiq davlat pedagogika instituti “Pedagogika va menejment” kafedrası o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** kredit-modul tizimi, o'qitish texnologiyalari, modulli ta'lim, oliy ta'limi tizimi, ijodiy faollik, zamonaviy oliy ta'lim muassasasi, jahon tajribasi.

**Ключевые слова:** кредитномодульная система, образовательные технологии, система высшего образования, творческая активность, высшие учебные заведения, мировой опыт.

**Key words:** credit modular system, educational technologies, higher education system, creative activity, higher education institutions, world experience.

Yangi O'zbekiston sharoitida xalq xo'jaligi uchun raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash shu kunning eng dolzarb muammosi ekanligi hech kimga sir emas. Oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy usulda olib borilayotgan ta'lim tizimi o'zining kutilgan natijalarini bermayapti. Jahon tajribasi esa oliy ta'lim muassasalarida o'qitishning kredit-modul tizimiga o'tish orqali maqsad-muddaoga yetish mumkinligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda, yurtimizning oliy ta'lim muassasalarida modulli ta'lim tizimiga o'tish jadal tus olmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24-yanvardagi Oliy majlisga yo'llagan murojaatnomasida ta'lim yo'nalishlari va o'qitiladigan fanlarni qayta ko'rib chiqish, mutaxassislikka aloqasi bo'lmagan fanlar sonini ikki barobar qisqartirish, oliy ta'limda o'quv jarayonini kredit-modul tizimiga o'tkazish kabi dolzarb masalalar bayon etilgan [1].

Modulli ta'lim texnologiyasi G'arbda juda keng tarqalgan bo'lib, har bir davlat o'z tajribasiga ega ekanligini tarixdan ko'rishimiz mumkin. Kredit-modul tizimi ilk bor 1869-yilda Garvard universitetida joriy etilgan bo'lib, tizim talabalarga fanlarni mustaqil

ravishda tanlash, kelajakdagi professional faoliyati uchun qanday bilim va ko'nikmalar kerak ekanligini aniqlash imkonini berdi.

Ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlarda modulli ta'lim tizimi XX asrdan yo'lga qo'yila boshlandi. O'sha davrlarda oliy ta'lim muassasalarida bu turdagi ta'limning asosi «mikrokurs» deb ataluvchi avtonom tarkibiy qismlar edi. Bu turdagi mikrokurslarning vazifasi bir yoki bir nechta o'quv dasturlari ichida talabalarning o'zaro erkin muloqoy qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat edi. AQSh universitetlarida didaktik materiallarni o'z ichiga olgan intizomni ta'minlash bo'yicha modulli o'quv rejalari mavjud edi.

Germaniya oliy ta'limi tizimi ham modulli texnologiyalardan tarkib topgan. Bunda talabalar har semestrlarning boshida o'zlarining shaxsiy o'quv rejasini tuzush huquqiga egalar. Taklif etilgan fanlar orasidan o'zlari uchun qiziqarli va albatta modullarni tanlab, o'qishga bo'lgan intilishlarini namoyon etishadi. Bu tanlov talabalarni mustaqil ravishda intensiv ishlashga undaydi.

Angliya tajribasida ham ta'lim kreditlari tizimi keng tarqalgan. Dastur modullari bo'yicha mashg'ulotlarga sarflangan soatlar va tadqiqot loyihalarida ishtirok etish va ilmiy maqolalar yozish kabi talabalarning erishgan yutuqlari umumlashtiriladi. Yevropaning aksariyat mamlakatlarida zamonaviy va boshqa turdagi universitetlarda ECTS (European Credit Transfer System) baholarni ballarga («kredit»larga) almashtirish tizimi deb ataladi. ECTS ya'ni Yevropa Kredit Transfer Tizimiga 1989 yilda asos solingan bo'lib, talaba olgan bilimning bahosini bir davlat oliy ta'lim muassasasidan ikkinchi davlat oliy ta'lim muassasasiga erkin ko'chishini, erishilgan ko'nikma va malakasini erkin tan olinishini ta'minlaydi. ECTS tizimida ta'lim olishning barcha turlari va o'quv yuklamasining barcha ko'rinishlari uchun qo'llanilishi mumkin [5].

Rossiya Federatsiyasi oliy ta'lim tizimiga modul tizimi XXI asrda yo'lga qo'yilgan bo'lib, ta'lim kompetentlik yondashuvi asosida amalga oshirilmoqda. Bunda modul, muayyan mehnat funksiyasini ishlab chiqish, talabalarning mehnat faoliyatini amalga oshirish va zarur ko'nikmalarni shakllantirish imkonini beradigan bir qator fanlarni o'z ichiga olishi kerak ekanligi ko'zda tutilgan [6].

Shunday qilib, chet eldagi oliy ta'lim muassasalaridagi bu tizim tufayli talaba o'zlashtirgan fanlar (modullar) va imtihonlari, har qanday boshqa Yevropa universitetida ta'lim jarayonini davom ettirish imkoniyatini beradi. Tahlillarimiz natijasi shuni ko'rsatib turibdiki, kredit-modul tizimi dunyoning turli davlatlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir davlat o'zining tizimga moslashuv modeliga ega. Shunga qaramasdan barcha davlatlarda bir xil ijobiy natijaga erishilganligi kuzatilmoqda. Psixologik jihatdan ham talabaning ta'lim trayektoriyasini shakllantirishdagi bevosita ishtiroki, mustaqil tanlovi, uning ta'lim olishga yo'naltirilgan shaxsiy motivlarining kuchayishiga olib keladi. Bu tizim o'quvchilarda tashabbuskorlikni, ijodiy faollikni, bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchayishiga, oqibatda ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining faol xalqaro faoliyati ularning barqarorligi va muvaffaqiyatining ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Har bir zamonaviy oliy ta'lim muassasasining oldida xalqaro ta'lim maydoniga kirish va unda mustahkam o'rnatilishdek katta maqsad mavjud. Muayyan bilim yurtida o'qishga undaydigan xorijiy talabalarni jalb qilish oliy ta'lim muassasasi jozibadorligining bevosita belgisidir. Jahon tajribasidan kelib chiqqa holda ko'rishimiz mumkinki, modulli ta'lim tizimi talabalarning

akademik mobilligini taminlashda yordam beradi. Shundan kelib chiqib, ta'lim sohasida ta'lim tizimlarini eksport qilish jarayoni faol olib borilmoqda, bu esa o'quv dasturlari va mutaxassislik olish tartib-taomillarining mustahkamligiga olib keladi.

Kredit-modul o'qitish tizimi – har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda kuzatib, baholab boruvchi o'quv dasturini tashkil etish hisoblanadi.

«Kredit» almashinuv birligi hisoblanib, olingan bilimning qachon va qayerda olinganligidan qat'iy nazar, hisobini chiqarish va tan olishni bildiradi.

Modul - bu alohida o'quv fani bo'lib, bilimga egalik qilish va kasbiy jihatlarni namoyon etishni ifodalaydi. Har bir modul o'quv dasturini o'zlashtirish natijasida shakllangan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanishi nazarda tutiladi.

Kredit-modul ta'lim tizimiga o'tish O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasining darajalari, bosqichlari, akademik darajalarini aniq baholashga imkon beradi. Ta'lim jarayonining shaffofligini, tan olinadigan va tashxislanadigan holatini ta'minlashda ham modulli ta'lim tizimi qo'l keladi. Bu esa jahon ta'lim muhitiga qo'shilishning bosh shartlaridan biri hisoblanadi.

Milliy ta'lim tizimini dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalash jarayonini takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi hukumati, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan qator ishlar amalga oshirilmoqda. Kredit-modul tizimini samarali yo'lga qo'yishda barcha ta'lim subyektlari, xususan, professor-o'qituvchilar, talabalar va ularning ota-onalaridan moslashuvchanlik talab etiladi. Pedagoglar jamoasining hamjihatligi, tashabbuskorligi, oliy ta'limdagi islohotlarni tushunishi, «talaba markazda» yohud shaxsga yo'naltirilgan ta'limga moslashish va istiqboldagi strategik rejalarni amalga oshirish asosiy vazifalarimiz hisoblanadi.

Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan kredit-modul tizimining samarasi quyidagi omillarga bog'liq:

- o'quv jarayonining me'yoriy-huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, moddiy-tehnika va ilmiy-uslubiy ta'minoti;
- zamonaviy darsliklar va o'quv-uslubiy qo'llanmalar bilan ta'minlanganligi;
- xalqaro axborot tarmoqlari mavjudligi, laboratoriya jihozlari bilan ta'minlanganligi va o'quv faoliyatida yangi axborot texnologiyalarining qo'llanilishi;
- o'z ustida ishlovchi, o'z pedagogik mahoratini muntazam oshirib boruvchi o'z ustida ishlovchi, interfaol o'qitish usullarini egallagan, o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish bo'yicha tayyorgarlikdan o'tgan o'qituvchilarning mavjudligi;
- talabalarning shaxsiy va mustaqil ta'lim faoliyati uchun shart-sharoitlarning mavjudligi [2].

Fikrimizni Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida ham 2020-2021 o'quv yilidan ta'lim jarayoni kredit-modul tizimida olib borilayotganiga qaratmoqchimiz. Oz fursat ichida professor-o'qituvchilar uchun alohida, talabalar va ularning ota-onalari uchun alohida o'quv seminarlari tashkil etilib, yangi ta'lim tizimi ahamiyati va imkoniyatlari bilan tanishtirildi. O'quv jarayoni davomida modulli ta'lim tizimiga

nisbatan moslashishda qator muammolar ham yuzaga kelmoqda. Ilmiy asosga ega bo'lgan moslashinuvchanlik modelining pedagogik-psixologik imkoniyatlari hali mavjud emasligi muammolarning asosiy sababi degan fikrdamiz. Kredit-modul ta'lim tizimiga moslashinuv jarayonini ta'minlashning tadqiqotlarga asoslangan modelini yaratish ustida izlanishlar olib borish vazifasini o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqotimizning ilmiy va amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida talabalarining modulli ta'lim tizimiga pedagogik va psixologik moslashuvini o'rganish, ularning samarali ishlash mexanizmini shakllantirishga yordam berishi mumkin ekanligi ko'zda tutilgan. Istiqbolda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan loyihaning qoidalarini talabalar va ota-onalar bilan ishlash dasturlarini tuzishda institut va boshqa tuzilmalarning amaliy faoliyatida qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvardagi Oliy majlisga murojaatnomasi.
2. Usmonov B.SH., Xabibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020 y.
3. Musurmonov R., Musurmonova M. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsiyalar. / Academic research in educational sciences. 2020. №3. 777-783.
4. Musurmonov R., Musurmonova M. Innovative activity - a factor of educational efficiency. / European Journal of Molecular & Clinical Medicine. Volume 08, Issue 03, 2021. P. 1238-1241.
5. Афанасьев Д.В., Грызлов В.С. Компетентностный подход и кредитномодульная система обучения. / Высшее образование в России. 2012. №6. С. 21-27.
6. Крючкова К.С. Модульная система обучения в российских вузах как условие обеспечения академической мобильности студентов. / педагогические науки. 2018. С. 28-32.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida jahonning rivojlangan davlatlari tajribasi asosida tashkil etilgan kredit-modul tizimida o'qitishning afzalliklari va talabalarning kredit-modul yuklamalarini bajarishdagi mas'uliyatini shakllantirish, yangi o'quv sharoitiga moslashtirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari to'g'risida fikr yuritilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрены преимущества обучения в высших учебных заведениях республики по кредитно-модульной системе, созданной на основе опыта развитых стран мира. Выявлена необходимость создания психолого-педагогических условий для адаптации к новой системе обучения, а также формирование ответственности у студентов за выполнение кредитно-модульных нагрузок.

#### SUMMARY

The article considers the advantages of studying in higher educational institutions of the republic according to the credit-modular system created on the basis of the experience of developed countries of the world. The necessity of creating psychological and pedagogical conditions for adaptation to the new system of education, as well as the formation of responsibility among students for the implementation of credit and modular loads is revealed.